

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**PEDAGOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM JARAYONINI
TASHKIL ETISHDA AMALIYOT BILAN UZVIYLIGINI TA'MINLASH
MASALALARI**

**Respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya
2024-yil, 15-oktyabr**

**Republic-wide scientific and scientific-technical conference
ISSUES OF ENSURING INTEGRATION WITH PRACTICE IN
ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS IN INSTITUTIONS OF
PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION
October 15, 2024**

1974 2024
Республиканскую научно-техническую конференцию на тему
**«РОЛЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА
ВЗАИМОСВЯЗИ С ПРАКТИКОЙ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЫСШИХ
УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ»,**
которая состоится 15 октября 2024 года

JIZZAX – 2024

2. Interaktiv ta’lim dasturlari va platformalar

Interaktiv ta’lim dasturlari va platformalar, masalan, Moodle, Google Classroom, va boshqa raqamli o‘quv platformalari, ta’lim jarayonini muhim darajada osonlashtiradi. Bu texnologiyalar o‘qituvchilarga darslarni masofaviy o‘tkazish, o‘quvchilarning bilim darajasini kuzatish va baholashda katta yordam beradi. Shuningdek, platformalar o‘quvchilarning individual ishslash sur’atlarini hisobga olib, ularga mos topshiriqlar va o‘quv materiallarini taqdim etish imkoniyatini beradi. Interaktiv platformalar orqali o‘quvchilar turli testlar va topshiriqlarni bajarishlari mumkin, bu esa ularning o‘quv materiallarini yaxshiroq o‘zlashtirishlariga yordam beradi.

Bu texnologiyalar ta’limning yanada qiziqarli, samarali va interaktiv bo‘lishini ta’minlaydi, shu bilan birga o‘qituvchilarga o‘quvchilarning muvaffaqiyatini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim texnologiyalari o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirishda samarali vosita sifatida muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida ta’lim jarayoni interaktiv, qiziqarli va shaxsiylashtirilgan shaklda tashkil etilishi, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga va ularning bilimlarini chuqurlashtirishga yordam beradi. Elektron darsliklar, raqamli resurslar, va interaktiv ta’lim platformalari o‘qish savodxonligini oshirishda yangi imkoniyatlarni yaratib, o‘quvchilarga mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish va bilimlarini chuqurroq egallashda katta yordam beradi.

Shu bilan birga, o‘qituvchilar uchun ham texnologiyalarning joriy etilishi ta’lim jarayonini samarali boshqarish, o‘quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va ularga individual yondashuvni ta’minlash imkonini beradi. Bu esa ta’lim sifatini oshirishga xizmat qildi. Shu sababli, ta’lim texnologiyalarining imkoniyatlarini kengroq qo’llash, kelajakda savodxon avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov, A. (2010). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
2. Qurbanov, I. (2012). Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: O‘qituvchi.
3. Vygotskiy, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
4. Jo‘rayev, R. (2014). O‘qish savodxonligi va uning ahamiyati. Toshkent: Fan va Texnologiya.
5. Ziyorova, G. (2016). Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo’llash. Toshkent: O‘zMU nashriyoti.
6. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.
7. Xolboyev, Q. (2018). Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi.
8. Yo‘ldosheva, M. (2020). Innovatsion ta’lim texnologiyalari va ularning o‘quv jarayoniga tatbiqi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.
9. Niyozmetov, M. (2015). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirishda yangi texnologiyalarning o‘rnini. Toshkent: Innovatsion Pedagogika.
10. Turg‘unov, A. (2017). Pedagogik texnologiyalar asoslari. Toshkent: Sharq.

VIZUAL VOSITALARNING METODLARDAGI KO‘RINISHI

*Muhayyo Umarova Turg‘unboy qizi
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti*

Annotations

Ushbu maqola ingliz tili o‘qitishdagi muhim bosqichlardan biri bo‘lgan munosib metod va yondashuv tanlash, dars jarayonini samaradorligini oshirish va til o‘rganishda yuqori natijalarga erishish usullarini muhokama qiladi. Bundan tashqari, xorijiy tillarni o‘qitishda keng qo’llanilib

kelayotgan metodlar va ularning vazifalarini tasniflaydi, eng muhim, dars jarayonida vizual vositalardan foydalanishning afzalliklarini baholaydi.

Kalit so'zlar: vizual o'rghanish, vizual o'ylash, vizual bilimdonlik, kognitiv psixologiya, ko'rgazmalilik, Total Physical Response, Natural way, CLT metodlari.

Abstract

The article discusses the ways of selecting an appropriate method and approach, which is one of the important stages in second language acquisition in order to make the lessons more effective and to achieve higher results in learning. Furthermore, it defines the methods and their functions in teaching foreign languages, particularly, signifies the advantages of using visual aids in learning process.

Key words: visual learning, visual thinking, visual knowledge, cognitive psychology, visualization, Total Physical Response, Natural way, CLT methods.

Hozirgi kunga kelib, dars jarayonida visual kontentlardan foydalanish o'qituvchilarga ma'lumligi sababli u anchagina mashhur. Visual vositalar orqali ingliz tilini o'qitish muhim ahamiyatga ega, chunki u talabalarni e'tiborini torta oladi, motivatsiyani oshiradi, o'zlarining tasavvurlaridan foydalanishga ruhlantiradi va asosiysi, o'rghanish bir paytning o'zida ham ta'limiy ham zavqli jarayon ekanligini tasdiqlaydi. Visual rag'batlantirishdan foydalanish o'qitish va o'rghanish jarayonini ko'proq ijodkor va omadliroq qiladi. Vizuallik talabalarga tushunchalarni oson o'zlashtirishga va ularning o'ylash va analiz qilish qobilyatlariga rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, vizuallik ma'lumotlarni qabul qilish va eslab qolishga yordam beradi va shu sababli, o'rghanish jarayonini samarali tashkillaydi.

Dars jarayonida visual vositalardan foydalanishning o'ziga xos yo'nalishlari mavjud. Misol uchun, visual o'rghanish atamasi mavjud bo'lib, bu tushuncha visual o'ylash va visual bilimdonlik izohlari bilan o'zaro bog'liq. Hozirgi kunda texnologiya va media tez sur'atlarda rivojlanib bormoqda va bu o'z navbatida jamiyatning visual rag'batlanishga asos bo'lishiga sabab bolmoqda. Talabalar dars davomida kompyuterlar, smart telefonlar va elektron qurilmalar bilan rag'batlantirilmoqda.

Oldinlari darsda asosan grammatik qobilyatni rivojlantirishga oid an'anaviy til o'rghanish odad tusiga kirgan bo'lsa, jamiyat rivojlangani sari bu o'qitish va o'rghanish jarayoni talabalarni e'tiborini tortmay qoldi. Vaqt o'tgan sari visual vositalardan foydalanish bu jarayonni osonlashishiga sabab bo'ldi. Media va texnologiya dars jarayoniga kirib kelishi bilan, o'qitish jarayoning osonlashtirishga doim ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Ham ta'limiy vam kognitiv psixologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, visual o'rghanish barcha yoshdagi o'rghanuvchilarni qanday o'ylash va o'rghanishni taqbiq etish uchun qo'llaniladigan eng yaxshi metodlardan biri sifatida tan olingan. Sababi, darsning samarali tashkillanishiga va talabalarning ijodiy yondashishlari uchun qulay sharoit yaratish bu sohada muhim omil hisoblanadi. Ingliz tilini ijodkorlik usulida o'qitish talabani rag'batlantiribgina qolmay, o'rghanish jarayoni faqat mazmundan emas, balki uning qanday namoyish etilishiga urg'u beradi. Shu sababli visual vositalar talabalar uchun ijoidiy kashfiyot ro'lini o'ynaydi.

Vizual o'rghanish orqali talaba keying bosqichga qadam tashlaydi. Bu visual o'ylash va fikrplashdir. Rivojlangan asrimizda hamma joyni turli xil rasmlar va logolar egallagan²² bu esa o'z navbatida rasmi matnlarni ma'lumotlar bilan bog'lashga yordam beradi. Visual o'ylash atamasiga izoh beradigan bo'lsak, bu barcha so'zlar, g'oyalar va tushunchalar rasm bilan birlashib o'rghaniladigan va yaxshiroq tushuniladigan o'rghanish uslubidir. Vizual o'ylash strategiyasi talabalarni asl ma'nodan tashqari ko'p ma'noli so'zlarni, metaforalarni va turli xil belgilarni tahlil

²² Collias, K. (2014) Visual thinking and student learning. Retrieved March 5 from <http://knowwithoutborders.org/visual-thinking-and-student-learning/>

qilish orqali tushunishga ruhlantiradi.²³ visual o'ylash orqali talabalar mazmunni bir-biriga bog'lash va yangi g'oyalar yarata olish qobilyatida ega bo'ladilar, shu sababli bu strategiyani ta'lim strategiyalarining biri sifatida dars jarayoniga olib kirish zarur.

Visual bilimdonlik deya ta'riflangan keyingi bosqich, muhim zamonaviy qobilyat turlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy o'qitish tizimida talabalar uchun o'qish va o'rganishning o'zi yetarli emas, balki ular matn va rasmlarni bog'lash orqali yoki vizualli imo-ishoralar orqali kerakli ma'lumotni o'qib, tushunib olish qobilyatiga ega bo'ladilar. Talabalar barcha sohada birdek berilgan rasm va g'oyalarni tushunib olishlari uchun, uni tadbiq qila olishlari uchun visual bilimdonlik muhim olim sanaladi.

Ingliz tili o'qitishda turli xil metodlar va yondashuvlardan foydalaniladi. Barcha metodlarda visual vositalardan foydalanish imkonи mavjud, shunga qaramay ba'zi o'qitish metodlarining asosiy qurilmasi bo'lib visual vositalar ro'l oynaydi. Misol uchun, Silent way, jimlik usuli deya tarjima qilinadigan bu metod 1970 –yilda tashkil topgan va bu metodning asosiy g'oyasi o'qituvchining imkonи boricha jimligi evaziga talabalarni iloji boricha ko'p gapirishga ruhlantirishdan iborat. Bu metodda talabalarga turli xil jismoniy obyektlar yoki kichik rangli buyumlar orqali ma'noni ko'rsatishga harakat qilinadi. Sinf xonasi turli xil rangli va ko'rgazmali diagrammalar, jadvallar va devor rasmlari kabi visual qurilmalar bilan boyitiladi. Bu qurilmalar talabalarga rasmlar orqali eslab qolishni rivojlantirishga va yangi ma'lumotni o'zlashtirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, Dr Jaymes va Asher tomonidan ishlab chiqilgan Total Physical Response nomini olgan o'qitish usuli tana muloqoti deb ataladi. Bu usulda o'qituvchi ota-ona ro'lini bajaradi va bitta so'zni harakat orqali ifodalashga harakat qiladi. Talabalar bu so'z va harakatni qaytaradilar. Bu dastlabki bosqich hisoblanadi, undan keyingi darajalarda talabalarga turli xil rasm, jadval, slayd va hayotiy materiallar orqali til o'rgatiladi. Bu usul orqali kinesetik va visual o'rganuvchilar ma'lumotlarni oson eslab qola oladilar.

Bu kabi metodlardan yana biri bu Tabiiy Yondashuv bo'lib, bu usul 1970-yilda Tracy Terrel tomopnidan ishlab chiqilgan va Stefen Krashen tomonidan rivojlantirilgan. Thornbury ta'rifiga ko'ra, bu metod o'qituvchining ko'p nutq so'zlashi va talabalarga visual ko'rsatmalar va vositalar orqali darsni tushunarli qilish bilan xarakterlanadi.²⁴ Bu usulning ahamiyatli jihatni, unda hech qanday Grammatik ko'rsatmalar va darsliklar mavjud emas, aksincha ular o'rnini visual vositalar egallagan. Dars jarayonida, o'qituvchi rasmloar orqali so'zlar tushuntiradi, rasmlar sind xonasida ko'rsatiladi va o'qituvchi so'zlarni aytganda talabalar rasmlardan foydalanib so'zlarni ko'rsatishi kerak. Bu metod yangi lug'atlarni o'qitish jarayoni uchun muhim hisoblanadi. Bu metod visual vositalar muloqot va tushunish jarayonini osonlashtirishga yordam bergani sababli ularga urg'u beradi.

Bugungi kunda eng asosiy o'qitish metodlaridan biri bo'lgan CLT metodi, ya'ni kommunikativ til o'qitish metodi til o'rganish real hayotda mnuloqot qilish orqali oson o'zlashtiriladi degan g'oyani ilgari suradi. Talabalar o'zlarining mahalliy tilidan foydalanmagan holda, xilma-xil audio-vizual materiallar, ayniqsa o'yinlar va rolli o'yinlar orqali darsni o'zlashtiradilar. Bu ularga tilni real hayotidagi ahamiyatini anglashga yordam beradi.

Umumiy qilib aytganda, hech qaysi bir metod turi mukammal emas va o'ziga yarasha yutuq, kamchiliklari mavjud, lekin hammasining maqsadi chet tili o'qitish jarayonini osonlashtirish va rivojlantirishdan iborat. Bundan tashqari, o'tmishda hamma metod turlarida ham visual va audio materiallardan foydalangan. Grammatik tarjima metodi haqiqiy hayot buyum va vositalardan foydalangan bo'lsa, qolgan barcha metod turlarida rasmlar, jadvallar, musiqa, qo'shiq, va ro'lli

²³ Finley, T. (2014). Common Core in Action: 10 Visual Literacy Strategies. 67 Retrieved February 3 from <https://www.edutopia.org/blog/ccia-10-visualliteracy-strategies-todd-finley>

²⁴ Thornbury, S. Methodology: The Natural Approach, (n.d.) Retrieved March 2 from <http://www.onestopenglish.com/methodology/ask-the-experts/methodology-questions/methodology-the-natural-approach/146401.article>

o‘yinlar kabi ko‘rgazmali qurollar muhim ahamiyat kasb etgan. Xulosa qilib aytganda, visual vositalarning ahamiyatini dars jarayonida ko‘rish mumkin. Ehtimol, dars muhitini o‘zgarishi yoki visual vositalar rivojlanishi mumkin, shunga qaramay, ko‘rgazmalilik hali ham o‘z ahamiyatini yo‘qtgani yo‘q. Aksincha, u kompyuterga asoslangan qurilmalar, proyektor va elektron doskalar kabi yangi, zamonaviy ko‘rinishlarda takomillashib bormoqda. Ko‘rgazmalilik hali ham dars jarayonida qo‘srimcha material sifatida o‘z ahamiyatini ko‘rsatib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Collias, K. (2014) Visual thinking and student learning. Retrieved March 5 from <http://knowwithoutborders.org/visual-thinking-and-student-learning/>
2. Finley, T. (2014). Common Core in Action: 10 Visual Literacy Strategies. 67 Retrieved February 3 from <https://www.edutopia.org/blog/ccia-10-visualliteracy-strategies-todd-finley>
3. Thornbury, S. Methodology: The Natural Approach, (n.d.) Retrieved March 2 from <http://www.onestopenglish.com/methodology/ask-the-experts/methodology-questions/methodology-the-natural-approach/146401>. article
4. Umarova, M. (2022, November). Talabalarning SoZlashuv Qobiliyatini Oshirishda Visual Vositalardan Foydalanish Samaradorligi. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 164-166).
5. Umarova, M. (2023). THE HISTORY AND SIGNIFICANCE OF VISUALIZATION IN LANGUAGE LEARNING. DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY", 14(1)

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ФАОЛИЯТИГА СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Хуррамов Мусурмон Келдиёрович

Ўзбекистон халқаро ислом академияси

1974 “Халқаро муносабатлар” кафедраси катта ўқитувчиси,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Аннотация

Мазкур мақола олий таълим муассасалари фаолиятига сунъий интеллект технологиясини жорий этишининг ижобий ва салбий жиҳатлари, етакчи хорижий олий таълим муассасаларининг олий таълим тизимига сунъий интеллект технологиясини татбиқ этиши борасидаги тажрибалари ҳамда дарс жараённада Chat GPT платформасидан фойдаланиши масалаларига бағишланган. Шунингдек, мақолада олий таълим муассасалари томонидан амалга оширилиши лозим бўлган дастлабки чора-тадбирлар ҳамда олий таълим тизимида сунъий интеллект платформалари имкониятларидан самарали фойдаланиши усуллари тадқиқ этилган.

Калим сўзлар: сунъий онг, ахлоқий мулоҳазалар, индивидуал таълим, маълумотларга асосланган таҳтил, интеллектуал тьюторлик тизимлари, Chat GPT.

Аннотация

Данная статья посвящена положительным и отрицательным аспектам внедрения технологий искусственного интеллекта в деятельность высших учебных заведений, опыту ведущих зарубежных вузов по применению технологий искусственного интеллекта в системе высшего образования, а также использованию платформы Chat GPT в ходе занятий. Также в статье исследуются первоначальные меры, которые следует предпринять высшим учебным заведениям, и пути эффективного использования возможностей платформ искусственного интеллекта в системе высшего образования.

Ключевые слова: искусственный интеллект, этические рассуждения, персонализированное обучение, аналитика на основе данных, интеллектуальные системы обучения, Chat GPT.